

## TILSHUNOS OLIM A.NURMONOVNING SINTAKTIK BIRLIKLAR SEMANTIKASIGA OID TA'LIMOTLARINING AHAMIYATI

**Xalilova Muyassarxon Tolipovna**

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada atoqli tilshunos olim A.Nurmonovning sintaktik birliklar, sodda va qo'shma gaplarning mazmuniy tuzilishi va ularni shakllantiruvchi qismlar orasidagi semantik munosabat masalalarini talqin etishi barobarida sintaktik sath birliklarining mantiqiy-mazmuniy aloqadorliklari asosida yaratgan yangicha g'oyalari hamda ushbu g'oyalarning tilshunoslik taraqqiyotidagi ahamiyati talqin qilingan.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются новые идеи, созданные выдающимся лингвистом А.Нурмоновым, основанные на логико-смысловых отношениях синтаксических единиц, а также значение этих идей в развитии языкознания, трактовка вопросов семантической структуры языка; обсуждаются синтаксические единицы, простые и сложные предложения, а также смысловые отношения между их составными частями.

**Abstract:** In this article, the famous linguist A.Nurmanov interprets the issues of syntactic units, the meaningful structure of simple and compound sentences, and the semantic relationship between their constituent parts' significance is interpreted.

**Kalit so'zlar:** o'zaro aloqadorlik, mantiqiy-mazmuniy yondashuv, mazmuniy munosabatlar, tadqiq usullari, ta'limot, mazmundan shaklga tomon, faol grammatika, argument-predikat, subyekt, possetiv subyekt, tayanch komponent.

Bizni qurshab turgan moddiy olamdagi mavjud barcha narsa-hodisalar, voqeliklar o'ziga turdosh boshqa bir jarayon va vaziyatlar bilan o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Mazkur aloqadorlik ularning turli darajadagi mazmuniy munosabatlarini ham belgilaydi va bu munosabatlar ularning o'ziga xos tabiati, qirralarini, mohiyatini yanada yorqin tarzda ochib beradi. Bu semantik munosabatlar tildagi mavjud birliklarda u yoki bu tarzda aks etadi, voqelanadi. Ayniqsa, sintaktik sath birliklarida mazmuniy munosabatlar yanada to'liqroq tarzda, nutqiy birliklarning qismlari orasida yuzaga chiqib, voqea-hodisalarning mazmuniy mohiyatini, ularning belgi-xususiyatlarini atroflicha yoritib berishga xizmat qiladi.

Olamdagi barcha voqea, hodisalar bir-biri bilan u yoki bu tarzda bog'langan. Mantiqan boshqa bir hodisa bilan aloqadorlikka ega bo'lmagan hodisaning o'zi yo'q. Bu aloqadorlik esa turli jihatlariga ko'ra mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, bir hodisa boshqasining natijasi sifatida kelib chiqishiga, sodir bo'lish paytiga, maqsadiga yoki boshqa jihatlariga ko'ra bog'liqlikka ega bo'ladi...[1, 219-220].

Ushbu mulohazalar bayonidan anglashiladiki, XX asrning oxirgi oʻn yilliklarida ustoz olim A.Nurmonov sintaktik sath birliklariga mazmuniy va tizimli jihatdan yondashib, sintaktik birliklar, sodda va qoʻshma gaplarning shakliy-mazmuniy tuzilishi va ularni shakllantiruvchi qismlar orasidagi semantik munosabat masalalarini talqin etishi barobarida sintaktik sath birliklarining mantiqiy-mazmuniy aloqadorliklari asosidagi yangicha taʼlimotlarini oʻrtaga tashladi.

Asosiy sintaktik birliklar doirasidagi “mazmundan shaklga tomon” oʻrganish tamoyillari toʻgʻrisidagi dastlabki qarashlarida professor A.Nurmonov, asosan, sodda va qoʻshma gaplar tuzilishini uning shakliy-mazmuniy tuzilishi bilan muvofiqlik va nomuvofiqlik holatlarini tekshirish asosida sintaktik birliklarni semantik jihatdan tadqiq qilish usullarini belgilab berdi. Ushbu qoidalar sintaktik butunliklar orasida yuzaga chiquvchi mazmuniy munosabatlarni belgilashda ham muhim ahamiyatga ega boʻldi. Olim gaplarni mazmundan shaklga tomon oʻrganish va tahlil qilishning tamoyilini quyidagicha tavsiflaydi:

«Grammatik birliklar tadqiqotchi tomonidan qaysi tomondan oʻrganilishiga koʻra, grammatika faol, nafaol turlarga boʻlinadi. Shakldan maʼnoga qarab tadqiq qilish usuli semasiologik usul hisoblanadi. Bu usulda grammatik birliklarni oʻrganish nafaol grammatika sanaladi. Aksincha, mazmundan shaklga tamoyili bilan ish koʻruvchi grammatika faol grammatika hisoblanadi. Faol grammatikada u yoki bu mazmun qanday yoʻllar bilan moddiylashishi mumkinligi aniqlanadi». Shu oʻrinda, olim, mazmuniy grammatika mazmundan shaklga tomon tamoyiliga amal qilishi obyektiv borliqning ongda aks etishi va ongda aks etgan obyektiv olam unsurlari umumlashgan obrazlarning tilda qanday oʻz ifodasini topishi vositasida voqealanishi, ushbu jihatlarning ilmda mazmuniy grammatikada oʻrganilishini nazariy jihatdan asoslab beradi [2, 179].

Bu borada olim anʼanaviy tilshunoslikda yaratilgan shakliy sintaksisga oid tadqiqotlarning benihoya katta ahamiyatini eʼtirof etib oʻtgani holda, grammatik birliklarning ilk bora mantiqiy mazmun tomonlarini ham tadqiq qilish yoʻnalishlarini belgilab beradi, ayniqsa, qoʻshma gap toʻgʻrisidagi oldingi ilmiy asoslangan gʻoyalar uning mazmuniy-tarkibiy xususiyatlariga oid yangicha qarashlarning paydo boʻlishi uchun qonuniy poydevor boʻlib xizmat qilganligi, shuningdek, har qanday gap, xususan, qoʻshma gap ham ikki tomonlama birlik boʻlib, ifoda tomoni va mazmun tomoniga ega ekanligini [1, 215], uni mazmun jihatdan ham tahlil qilish shakl va mazmun dialektikasining qonuniyatlariga muvofiq tarzda amalga oshirilishini taʼkidlaydi. Bu gʻoyani asoslashda tildagi turli vositalarning bir-biri bilan munosabati asosida yuzaga keladigan, bevosita reallashadigan maʼnolar; sintaktik birliklarning mazmun tomoni uning tashqi olamdagi holatlar, jarayonlar, obyektlar bilan qanday aloqadorlikka ega ekanligini bildirishi hamda ularning asl mohiyatini

ochishga yordam berishi mumkinligi haqidagi fikrlarini o‘rtaga tashlaydi [1, 215-218].

Mazmuniy munosabatlarning shu tarzda voqelanishi to‘g‘risidagi mushohadalarini bayon etar ekan, olim, mazmuniy-mantiqiy munosabatlarning dastlab qo‘shma gap qismlari o‘rtasida yuzaga kelishini quyidagicha izohlaydi: «...ergash gapli qo‘shma gaplar bog‘langan qo‘shma gaplarga qaraganda, uzvlari o‘rtasidagi mazmuniy-tarkibiy munosabatlar tabiatiga, bu munosabatni yuzaga keltiruvchi mazmuniy, mantiqiy va sintaktik mexanizmlarning juda ancha murakkabligiga ko‘ra farq qiladi. Shuning uchun ham ergash gapli qo‘shma gaplarni baholashda jiddiy muammolar anchagina...». Shuning uchun ham ergash gapli qo‘shma gaplarni baholashda va ularni tasnif etishda hanuzgacha munozarali tortishuvlarning davom etayotganligiga jiddiy sabab, ergash gapli qo‘shma gap qismlari orasidagi turli mazmuniy munosabatlarning ifodalanganligida, deb ko‘rsatadi olim [1,212-216]. A.Nurmonov voqealar o‘rtasidagi munosabatlarning ifodalanishi haqidagi nazariy fikrlarini davom ettirib, muayyan voqea ifodachisi gap bo‘lsa, voqealar o‘rtasidagi munosabatning ifodachisi qo‘shma gap ekanligini, til belgisi sifatidagi qo‘shma gapning mazmuni voqealar o‘rtasidagi munosabatlardan tashkil topishini ta’kidlab o‘tadi.

...Bir hodisa boshqasi bilan kelib chiqishiga, sodir bo‘lish paytiga, maqsadiga yoki boshqa jihatlariga ko‘ra bog‘liqlikka ega bo‘ladi. Bu borada olim A.Nurmonov rus tilidagi qo‘shma gaplarda ifodalanadigan mazmuniy munosabatlar bo‘yicha S.A.Shuvalovning «Qo‘shma gapdagi mazmuniy munosabatlar va ularning ifodalanish usullari» haqidagi tadqiqoti [3] rus tilidagi qo‘shma gaplarning ideografik aspektida o‘rganishga bag‘ishlanganligi, xususan, S.A.Shuvalovning «Qo‘shma gapdagi mazmuniy munosabatlar va ularning ifodalanish usullari» nomli monografiyasi «muayyan «g‘oya» («ideya») berilgan, bu «g‘oya»ni ifodalovchi til belgisini topish» aspekti asosiga qurilganligini alohida ta’kidlaydi.

Keltirib o‘tganimizday, A.Nurmonov sintaktik birliklar semantikasi, gapning mazmuniy tuzilishi, gap semantikasining propozitiv aspektlarini va propozitsiv strukturaning markaziy elementi, «semantik markaz» hisoblangan predikat va uning argumentlari talqinida lingvistik nazariyalarning rivojlanish jarayonida ma’lum bir tuzilishga ega bo‘lgan sintaktik qurilmalardagi argument-predikat munosabatlari turli mazmuniy maydonlarni hosil qilishi va bunda “subyekt” tushunchasi eng munozarali masalalardan biri ekanligiga e’tibor qaratadi [1, 218] hamda olim sodda gaplardagi subyekt harakatining semantik tahliliga tayangan holda, subyektning bir qancha turlarini keltirib o‘tadi.

Tilshunos olimning ushbu g‘oya va ta’limotlari XXI asr lingvistika ilmida kichik sintaktik birliklar hamda katta sintaktik butunliklarning mazmuniy jihatdan